

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

MASHINASOZLIK  
ILMIY-TEXNIKA JURNALI

\*\*\*

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
МАШИНОСТРОЕНИЕ

\*\*\*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL  
MACHINE BUILDING

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan Andijon mashinasozlik institutining "Maashinasozlik" ilmiy-technika jurnali "TEXNIKA" va "IQTISODIYOT" fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yhatiga kiritilgan.*

Ushbu jurnalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to'liq yoki qisman chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim mos tushmasligi mumkin. Ilmiy-technika jurnalida yozilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolaning mualliflari mas'ulidirlar.

Mashinasozlik va mashinashunoslik. Mashinasozlikda materiallarga ishlov berish. Metallurgiya. Aviasiya texnikasi	
Анализ состояния теоретических и экспериментальных исследований точности обработки отверстий концевым инструментом <b>Желтухин А.В.</b>	5
Termoplast bog'lovchilar asosidagi organomineral geterokompozitlarni tabiiy tolali to'ldiruvchilar bilan sinchlashning materialning fizik-mexanik xossalariiga ta'siri <b>Raxmatov E.A., Ziyamuxamedov J.U.</b>	12
Tuproqqa ishlov berishda kombinatsiyalashgan agregatlardan foydalanishning afzalliliklari <b>Qosimov K.Z., Sobirov R.V.</b>	19
Geoaxborot monitoring tizimining kimyo sanoati obyektlarida xavfsizlikni taminlashdagi o'rni <b>Xoldarov A.R., Alimov Sh.A.</b>	24
Paxta xomashyosini bir tekis uzatish harakatini tahlil qilish va nazariy o'rghanish <b>Kosimov X.X., Mamataliyeva Z.X.</b>	31
Tola ajratish mashinasida arrali silindr va tezlatkich tezligining tahlili <b>Umarov A.A.</b>	37
Tosh maydalagichlar jag'lari orasidagi qamrash burchagini asoslash <b>Zo'xriddinov D.K., Karimxodjayev N., Yo'ldashev Sh.X.</b>	44
Arrali jin batareyasi jinlarining ishchi kamerani ko'tarish-tushirish qurilmalari pnevmatik yuritmasidagi havo sarfi hisobi <b>Umarov A.A., Usmonov Sh.K.</b>	50
Payvandlab qoplangan kolosniklarni yeyilishga sinash <b>Xoshimov X.X., Ruziboyeva I.O.</b>	58
Ikkilamchi metallardan olingan 110г13л po'lati quymalarining makro va mikro tuzilishi <b>Muxiddinov N.Z.</b>	63
Energetika va elektrotexnika. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini elektrlashtirish texnologiyasi. Elektronika	
O'zbekistonning tarqatish elektr tarmoqlari uchun 20 kV kuchlanishni qo'llash <b>Taslimov A.D., Raximov F.M.</b>	75
Sanoat korxonalarida elektr motorlar uchun qo'llaniladigan kodlovchi (encoder) detektorining ishlash ko'lамини takomillashtirish <b>Olimov J.S., Raximov F.M.</b>	83
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash texnologiyasi	
To'qimachilik korxonalarida nuqsonli mahsulotlarni nazorat qilish orqali mahsulot sifatini boshqarish <b>Vasiyev X.U.</b>	90
Energiya iste'moli, unumdotligi va yonilg'i sarfini baholash uchun yangi yaratilgan yoki mavjud qishloq xo'jalik mashinalarga maqbul traktorlarni tanlashni nazariy asoslash <b>Igamberdiev A.K., Usmanova G.F.</b>	97
Urug'lik chigitlarni saralash qurilmasini takomillashtirish <b>Abdullaev A.A., Obidov A.A.</b>	108
Tirik pillalardan yuqori sifatli xom ipak ishlab chiqarish texnologiyasi va olingan xom ipak sifatining tahlili <b>Qobulova N.J.</b>	115
Urug'ni uyalab ekishda pnevmatik ekish apparatlarining qiyosiy sinovlari <b>Alimova F.A., Saidova M.T.</b>	122

**Umarov Akmal Akparalievich** – PhD, dotsent, Namangan to'qimachilik sanoati instituti “To'qimachilik tolalari muhandisligi” kafedrasи doktoranti, [akmal.umarov@mail.ru](mailto:akmal.umarov@mail.ru), +998 90 2193190

**Usmonov Shuxratjon Kamoljonovich** – PhD, Namangan to'qimachilik sanoati instituti “Sanoat muhandisligi” kafedrasи dotsenti, [shuhratusmonov@mail.ru](mailto:shuhratusmonov@mail.ru), +998 97 3741139

## **ARRALI JIN BATAREYASI JINLARINING ISHCHI KAMERANI KO'TARISH-TUSHIRISH QURILMALARI PNEVMATIK YURITMASIDAGI HAVO SARFI HISOBI**

### **РАСЧЕТ РАСХОДА ВОЗДУХА ПНЕВМАТИЧЕСКОГО ПРИВОДА УСТРОЙСТВ ПОДЪЁМА-ОПУСКАНИЯ РАБОЧЕЙ КАМЕРЫ ДЖИНОВ БАТАРЕИ ПИЛЬНЫХ ДЖИНОВ**

### **THE CALCULATION OF AIR FLOW OF PNEUMATIC DRIVE OF LIFTING-LOWERING DEVICES OF THE ROLL BOX OF JINS BATTERIES OF SAW JINS**

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolada arrali jin ishchi kamerasida xom ashya valigi zichligini ortishi natijasida avariya holatini oldini olish uchun ishchi kamerani ko'tarish-tushirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif berilgan bo'lib, unda tizimning pnevmatik yuritmasidagi havo sarfi hisobi keltirilgan. Qurilmani ishlab chiqarishga joriy qilinishi xom ashya valigi zichligini me'yordan ortishi natijasida sodir bo'ladigan tola va chigitning sifat ko'rsatkichlarini pasayishini, arra va kolosniklarning muddatidan oldin ishlash chiqishini, arrali silindr elektromotorini kuyishini oldini oladi.

#### **АННОТАЦИЯ**

В статье дана рекомендация по совершенствованию механизма подъема-опускания рабочей камеры с целью предотвращения аварийного состояния в результате увеличения плотности сырцового валика в рабочей камере пильного джина, приведен расчет расхода воздуха пневматического привода системы. Внедрение устройства в производство позволит предупредить снижения качественных показателей волокна и семян, преждевременные поломки пил и колосников, перегорания электродвигателя пильного цилиндра возникающие в результате переуплотнения сырцового валика.

#### **ANNOTATION**

The article gives a recommendation for improving the mechanism for raising and lowering the roll box in order to prevent an emergency condition as a result of an increase in the density of the seed roll in the roll box of the saw gin, and provides a calculation of the air consumption of the pneumatic drive of the system. The introduction of the device into

production will prevent a decrease in the quality indicators of fiber and seeds, premature breakdowns of saws and grates, and burnout of the electric motor of the saw cylinder resulting from overcompaction of the seed roll.

**Kalit so‘zlar:** arrali jin, ishchi kamera, ishchi kamerani ko‘tarish-tushirish mexanizmi, pnevmatik yuritma, havo oqimi tezligi, havo oqimi bosimi, havo sarfi.

**Ключевые слова:** пильный джин, рабочая камера, механизм подъема-опускания рабочей камеры, скорость потока воздуха, давление потока воздуха, расход воздуха.

**Key words:** saw gin, roll box, mechanism for raising and lowering the roll box, air flow speed, air flow pressure, air flow.

Hozirgi paytda arrali jinlash jarayonidagi asosiy muammolarga yuqori quvvat sarfi, zamonaviy mexanizmlar bilan boyitilmaganligi, jarayonni boshqarish imkoniyatlari pastligi kiradi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, mahalliy paxta tozalash korxonalarida foydalilanayotgan paxtani jinlash mashinalari zamonaviy mexanizmlarni qo‘llash, jarayonni avtomatlashtirish va boshqarish borasida tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Arrali jinlash mashinasini ishchi kamerasini ko‘tarish-tushirish mexanizmining ishlashi ekspluatatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ekspluatatsion xarajatlarning yuqoriligi, qo‘llash doirasining torligi tufayli arrali jin ishchi kamerasini ko‘tarish-tushirish mexanizmlari hozirda aksariyat ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilmayapti. Ishchi kamerani ko‘tarish-tushirish esa jin operatori qo‘l kuchi orqali richagli mexanizm yordamida amalga oshirilmoqda.

Arrali jinning ishchi kamerasi ma‘lum bo‘lib [1], u arrali silindr, old to‘singa mahkamlangan kolosnikli panjara, o‘qda o‘rnatilgan ko‘chishga imkonli bor old fartuk, chigit tarog‘i va quyi fartukdan iborat. Quyi fartuk o‘qda buralishi mumkin qilib o‘rnatilgan. Kamera fartuk ko‘chishini nazorat qurilmasi bilan ta’milangan. Qurilma kameraning tashqi tomonidan o‘rnatilgan va qayishqoq elementlar va xomashyo valigi zichligining mexanik datchigi bilan bog‘langan ko‘chish chegaralovchisidan iborat.

Lekin ushbu ishchi kamera xomashyo valigini og‘irlik va hajmini ortishida, ayniqsa past navli paxtani ishlashda, uni ortiqcha zichlanishi mumkinligi bilan farqlanadi. Bu esa olinayotgan mahsulot hajmiga ta’sir etadi va tifilishlar hosil bo‘lishini oldini olmaydi.

Arrali jinning harakatlanuvchi ishchi kamerasi mayjud arrali jin ishchi kamerasiga asoslangan bo‘lib [2], u old fartuk, old to‘sing, unda o‘rnatilgan kolosnikli panjara, arrali silindr, chigit tarog‘i va quyi fartukdan iborat. Arrali silindrning vali, ta’minlagich ishini avtomatik rostlovchi chastota o‘zgartirgichga arrali silindr motori yuklanish toki to‘g‘risidagi signal beruvchi datchik bilan ta’milangan, elektromotor vali bilan bog‘langan.

Ushbu tizimning kamchiligi – ishchi kameraga uzatilayotgan paxta miqdorining o‘zgarishini kech qolishidir.

Arrali jin ishchi kumerasida xomashyo valigining zichligi optimal ko‘rsatkichdan o‘zgarib turadi, bu esa mashina unumdorligini kamaytiradi, tola va chigitning sifat ko‘rsatkichlarini pasaytiradi, elektr quvvat sarfini oshiradi, ishchi organlar ishlash muddatini kamaytiradi, mashinaning tifilishiga va hatto arrali silindr elektromotorining ishdan

chiqishiga olib keladi. Shu sababli arrali jinning avtomatik rostlanuvchi ishchi kamerasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ishdan maqsad – xomashyo valigi zichligini o‘zgarishiga bog‘liq holda avtomatik rostlanuvchi arrali jinning ishchi kamerasini yaratish.


Qo‘yilgan masala quyidagicha yechiladi. Arrali jinning avtomatik rostlanuvchi ishchi kamerasi old fartuk, old to‘sint, unda o‘rnatilgan kolosnikli panjara, arrali silindr, chigit tarog‘i va quyi fartuk, arrali silindrni aylantiruvchi elektromotordan iborat. Arrali silindr elektromotori yuklanish toki datchigi bilan bog‘langan. Ishchi kamerani harakatlantiruvchi mexanizm – aktuator arrali silindr elektromotori toki datchigidan kelayotgan signal bo‘yicha boshqariladi.

Arrali jinni avtomatik rostlanuvchi ishchi kamera bilan jihozlanishi, ta’minlovchi valiklardan paxtaning o‘zgargan miqdori ishchi kameraga yetguncha, arrali silindr elektromotorining yuklanish tokiga ko‘ra ishchi kamera holatini rostlash, hamda xomashyo valigi zichligini nazorat qilish imkonini beradi.

Arrali jinning avtomatik rostlanuvchi ishchi kamerasi quyidagicha ishlaydi (1-rasm). Kelayotgan paxta ishchi kamera ichida arrali silindr 4 bilan kontaktga kirib, xomashyo valigini hosil qiladi. Xomashyo validan kolosnikli panjara 3 orqali arrali silindr 4 yordamida tola ishchi kamerasidan chiqariladi, bunda chigitni chiqarilishi chigit tarog‘i 5 ning holati bilan rostlanadi.

Ishchi kamerada xomashyo valigi zichligining o‘zgarishida mos ravishda ta’minlovchi valiklar tezligini rostlash yo‘li bilan kelayotgan paxta miqdori o‘zgartiriladi. Shu bilan birga arrali silindr 4 elektromotori 7 da yuklanish toki o‘zgaradi, hamda unga ulangan yuklanish toki datchigi 8 ta’sirlanadi. Datchik ko‘rsatgichi chegaraviy qiymatdan ortishi bilan aktuator 9 ishchi kamerani ish sohasidan chiqaradi va shu tariqa arrali silindr elektromotoriga tushayotgan yuklanish tokining o‘rnatilgan kattaligi tiklanadi. Elektromotor tok kuchi datchigi normal holatga kelganda aktuator ishchi kamerani ish holatga keltiradi. Bu jarayon uzlusiz davom etadi.

Qurilma chizmada keltirilgan bo‘lib, arrali jinning harakatlantiruvchi ishchi kamerasining ish holatida (1-rasm, a) va ishchi holatda chiqarilgandagi (1-rasm, b) vaziyati tasvirlangan: old fartuk 1, old to‘sint 2, unda o‘rnatilgan kolosnikli panjara 3, arrali silindr 4, chigit tarog‘i 5 va quyi fartuk 6, arrali silindr elektromotori 7, yuklanish toki datchigi 8, ishchi kamerani harakatlantiruvchi aktuator 9.



1-rasm. Arrali jinning avtomatik rostlanuvchi ishchi kamerasi

1 – old fartuk, 2 – old to’sin, 3 – kolosnikli panjara, 4 – arrali silindr, 5 – chigit tarog‘i, 6 – quyi fartuk, 7 – arrali silindr elektromotori, 8 – yuklanish toki datchigi, 9 – ishchi kamerani harakatlantiruvchi aktuator

Yuqoridagi keltirilgan pnevmatik yuritmani hisoblashda uning bir ish davri uchun havo sarfi aniqlanadi.

Pnevmosilindrga kirib kelayotgan havo magistralidagi birinchi yaqinlashishda bosim yo‘qotilishini  $\Delta p_u = 0,1 \text{ MPa}$  qabul qilib [3], siqilgan havoning kirish va chiqib ketishidagi havo sarfini hisoblaymiz. Uzatmaning ishchi harorati  $T = 293 \text{ K}$ .

Havoning kirish magistralidagi havo sarfining hisobiy qiymatini aniqlaymiz:

$$G_u = \frac{p_1 \cdot F_1 \cdot V_{\max}}{R \cdot T \cdot \eta_0} \cdot n \quad (1)$$

bunda:  $p_1$  – kirish magistralidagi havo bosimi,  $p_1 = 0,6 \cdot 10^6 \text{ MPa}$ ;

$F_1$  – porshenning foydali yuzasi,  $d_u = 100 \text{ mm}$  silindr uchun  $F_1 = 78,5 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$ ;

$V_{\max}$  – porshenning maksimal tezligi,  $V_{\max} = 0,56 \text{ m/s}$ ;

$R$  – gaz doimiysi,  $R = 287 \text{ J/kg}$ ;

$T$  – ishchi muhit harorati,  $T = 293 \text{ K}$ ;

$\eta_0$  – pnevmosilindrning hajmiy foydali ish koeffitsiyenti, bu kattalik pnevmosilindrini havoning sizib chiqishini hisobga oluvchi koeffitsiyent,  $\eta_0 = 0,8 \div 0,95$ ;

$n$  – jinlar soni,  $n = 3$  ta.

Qiymatlarni (1) ifodaga qo‘yib, havo sarfining qiymatini hisoblaymiz:

$$G_h = \frac{0,6 \cdot 10^6 \cdot 78,5 \cdot 10^{-4} \cdot 0,56}{287 \cdot 293 \cdot 0,85} \cdot 3 = 0,111 \text{ kg/s}$$

Havoning chiqish magistralidagi havo sarfining hisobiy qiymatini aniqlaymiz:

$$G_e = \frac{p_2 \cdot F_2 \cdot V_{\max} \cdot \eta_0}{R \cdot T} \cdot n = \frac{0,16 \cdot 10^6 \cdot 73,2 \cdot 10^{-4} \cdot 0,56 \cdot 0,85}{287 \cdot 293} \cdot 3 = 0,020 \text{ kg/s} \quad (2)$$

bunda:  $p_2$  – chiqish magistralidagi havo bosimi,  $p_2 = 0,16 \cdot 10^6 \text{ MPa}$ ;

$F_2$  – porshenning shtok tomondagi foydali yuzasi,  $d_u = 28 \text{ mm}$  shtokli silindr uchun  $F_2 = 73,2 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$ .

Ish sharoitida havoning zichligini aniqlaymiz:

$$\rho_m = \frac{\rho_0 \cdot p \cdot T_0}{p_0 \cdot T} = \frac{1,25 \cdot 0,6 \cdot 293}{0,1 \cdot 293} = 7,5 \text{ kg/m}^3 \quad (3)$$

bunda:  $\rho_0 = 1,25 \text{ kg/m}^3$  – normal sharoitdagi havoning zichligi;

$p = 0,6 \text{ MPa}$  – magistraldagi havo bosimi;

$p_0 = 0,1 \text{ MPa}$  – normal sharoitdagi havoning bosimi;

$T_0 = 293 \text{ K}$  – normal sharoitdagi havoning harorati.

Havoning magistralda tarqalish tezligini har ikki qismi uchun  $u = 50 \text{ m/s}$  deb qabul qilib, havo quvuri diametrini aniqlaymiz:

$$d = \sqrt{\frac{4G_h}{\rho_m \cdot \pi \cdot u}} = \sqrt{\frac{4 \cdot 0,111}{7,5 \cdot 3,14 \cdot 50}} = 0,01 \text{ m} \quad (4)$$

GOST 16516-2016 [4] bo‘yicha hisobiy qiymatga yaqin ko‘rsatkichni tanlaymiz:  
 $d_y = 20 \text{ mm}$ .

Kinematik qovushoqlikni hisoblaymiz:

$$\nu = \frac{\mu}{\rho_m} \quad (5)$$

bunda:  $\mu$  – havoning dinamik qovushoqligi, uning qiymatini jadval ma’lumotlari [5] dan tanlaymiz.

Havo harorati  $20^\circ\text{S}$  va  $\mu = 1,83 \cdot 10^{-5}$  bo‘lganda:

$$\nu = \frac{1,83 \cdot 10^{-5}}{7,5} = 0,244 \cdot 10^{-5} \text{ m/s}$$

Reynolds sonini hisoblaymiz:

$$Re = \frac{u \cdot d_y}{\nu} = \frac{50 \cdot 0,02}{0,244 \cdot 10^{-5}} = 4,1 \cdot 10^5 > 2300 \quad (6)$$

Reynolds sonining hisobiy qiymati kritik qiymatdan katta, shuning uchun havo quvuridagi oqim rejimi – turbulent. Havoni uzatish uchun polivinilxloridli quvur tanlandi.

Uning ichki devori g‘adir-budurlik qiymatini jadval ma’lumotlari [5] dan tanlaymiz  $\Delta = 0,0015$ .

$Re > 2300$  bo‘lganda magistraldagi ishqalanish koeffitsiyentini Altshul formulasidan foydalanib aniqlaymiz:

$$\lambda = 0,11 \cdot \sqrt{\frac{\Delta}{d_y} + \frac{68}{Re}} = 0,11 \cdot \sqrt{\frac{0,0015}{20} + \frac{68}{4,1 \cdot 10^5}} = 0,014 \quad (7)$$


Har qanday uzatmada bo‘lgani kabi pnevmatik yuritmada ham havoni uzatishda yo‘qotishlar kuzatiladi. Bu hodisa bosim yo‘qotilish hodisasi deyiladi. Bosim yo‘qotilishi ikki turli bo‘ladi: havo quvuridagi ishqalanish va mahalliy qarshilik hisobiga hosil bo‘ladigan bosim yo‘qotilishi:

$$\Delta p_n = \Delta p_m + \Delta p_M$$

Ishqalanish hisobiga bosim yo‘qotilishi:

$$\Delta p_m = \frac{\lambda \cdot l \cdot u^2 \cdot \rho_1}{2d_y} \quad (8)$$

bunda:  $l$  – havo quvuri uzunligi, m; arrali jinning o‘lchamlari va unda tizimning joylashuvini hisobga olib,  $l = 24$  m qabul qilish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Arrali jin batareyasi uchun ko‘tarish-tushirish qurilmasi pnevmotizim sxemasi  
HF – havo filtri, HT – havo taqsimlagich, F8 – diametri 8 mm li quvur

U holda:

$$\Delta p_m = \frac{0,014 \cdot 24 \cdot 50^2 \cdot 7,5}{2 \cdot 0,02} = 0,154 \text{ MPa}$$

Havo quvuridagi egilishlar kamligi tufayli egilishdan hosil bo‘ladigan yo‘qotishlarni hisobga olmaymiz. Havo filtri, bosim rostlagich, moy purkagichdan hosil bo‘ladigan mahalliy qarshilik hisobiga bosim yo‘qotilishi bu pnevmoapparatlarning texnik xarakteristikalaridan olinadi [5]:

$$\Delta p_{M1} = 0,05 \text{ MPa}$$

Havo taqsimlagichdagi bosim yo‘qotilishini Veysbax formulasidan foydalanib aniqlaymiz:

$$\Delta p_{M2} = \frac{\xi_M \cdot \rho \cdot u^2}{2} \quad (9)$$

bunda:  $\xi_M$  – mahalliy qarshilik koeffitsiyenti, oqimning jadal siqilishida  $\xi_M = \frac{1}{2} \left( 1 - \frac{F'_2}{F'_1} \right)$

ifoda orqali aniqlanadi;

$F'_1$  va  $F'_2$  – mos ravishda mahalliy qarshilikkacha va undagi oqim ko‘ndalang kesimi.

Bizning hol uchun  $F'_1 = 0,02 \text{ m}$  va  $F'_2 = 0,008 \text{ m}$ .

Qiymatlarni (9) ga qo‘yib hisoblaymiz:

$$\Delta p_{M2} = \frac{1}{2} \left( 1 - \frac{0,008}{0,020} \right) \cdot \frac{7,5 \cdot 50^2}{2} = 0,0028 \text{ MPa}$$

Umumiy bosim yo‘qotilishi esa:

$$\Delta p_h = \Delta p_m + \Delta p_{M1} + \Delta p_{M2} = 0,154 + 0,05 + 0,0028 = 0,207 \text{ MPa}$$

Porshen ishchi yuzasida hosil bo‘ladigan maksimal bosim:

$$p_{1max} = p_m - \Delta p = 0,6 - 0,207 = 0,39 \text{ MPa} \quad (10)$$

Siqilgan havo kelayotgan magistraldagi sarf koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$\delta = \frac{p_{max}}{p_m} = \frac{0,39}{0,6} = 0,66 \quad (11)$$

Havoning umumiy sarfi koeffitsiyenti esa:

$$\mu = \frac{1}{\sqrt{\lambda \left( \frac{2}{d_y} \right) + \left( \frac{2}{K} \right) \cdot \ln \left( \frac{1}{\delta} \right)}} \quad (12)$$

bunda:  $K$  – adiabata ko‘rsatkichi ( $K = 1,4$ ).

Uning miqdori:

$$\mu = \frac{1}{\sqrt{0,014 \left( \frac{2}{0,02} \right) + \left( \frac{2}{1,4} \right) \cdot \ln \left( \frac{1}{0,66} \right)}} = 0,71$$

Havo oqimining tezligini aniqlashtiramiz:

$$\begin{aligned} u &= \mu \left( \frac{p_m}{\rho_m} \right) \cdot \sqrt{\frac{2K \left( \delta^{\frac{2}{K}} - \delta^{\frac{K+1}{K}} \right)}{RT(K-1)}} = \\ &= 0,71 \left( \frac{0,6 \cdot 10^6}{7,5} \right) \cdot \sqrt{\frac{2 \cdot 1,4 \cdot \left( 0,66^{\frac{2}{1,4}} - 0,66^{\frac{1,4+1}{1,4}} \right)}{287 \cdot 293 \cdot (1,4-1)}} = 129,6 \text{ m/s} \end{aligned} \quad (13)$$

Silindrik truboprovodning shartli o‘tish maydoni  $F_y$ :

$$F_y = \frac{\pi \cdot d_y}{4} = \frac{3,14 \cdot 0,001}{4} = 7,85 \cdot 10^{-5} \quad (14)$$

bunda:  $d_y$  – truboprovod diametri,  $d_y = 0,01 \text{ m}$ .

Havoning massaviy sarfini aniqlaymiz:

$$G = \rho_m \cdot u \cdot F_y = 7,5 \cdot 129,6 \cdot 7,85 \cdot 10^{-5} = 0,076 \text{ kg/s} \quad (15)$$

Dastlabki kesimdagи havoning hajmiy sarfi:

$$Q = \frac{G}{\rho} = \frac{0,076}{7,5} = 10,17 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3/\text{s} \quad (16)$$

Havoning maksimal sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$G_{max} = \mu_0 \cdot \rho_m \cdot F_y \cdot \sqrt{\frac{2\delta^*(1-\delta^*)}{RT}} = 0,71 \cdot 0,6 \cdot 10^6 \cdot 7,85 \cdot 10^{-5} \cdot \sqrt{\frac{2 \cdot 0,528 \cdot (1-0,528)}{287 \cdot 293}} = 0,082 \text{ kg/s} \quad (17)$$

bunda:  $\delta^* = 0,528$  – bosimning chegaraviy nisbati.

Havoning hajmiy sarfi maksimal qiymati esa:

$$Q_{max} = \frac{60 \cdot G_{max}}{\rho} = \frac{60 \cdot 0,082}{7,5} = 0,65 \text{ m}^3/\text{min} \quad (18)$$

**Umumiy xulosalar.** Olingan natijalar, ya’ni arrali jin batareyasi jinlarining ishchi kamerani ko’tarish-tushirish qurilmalari pnevmatik yuritmasidagi aniqlangan havo sarfiga qarab qurilmani energiya samaradorligini hisoblaymiz. Bu esa mashina unumdorligini oshirishga, elektroenergiya sarfini kamaytirishga, tizilishlarni oldini olishga, tola va chigitning sifat ko’rsatkichlarini saqlab qolishga olib keluvchi, arrali jinlar ishchi kameralarini avtomatik ko’tarish-tushirish qurilmasini yaratish imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR

1. Усманов Х.С., Якубов Д. Рабочая камера пильного джина. Патент РУз №3819. РА №3. – Ташкент. 1996.
2. Ахмедходжаев Х.Т., Абдувахидов М., Умаров А., Кшивицкий О.О. Рабочая камера пильного джина. Патент РУз № FAP 00599 / Официальный бюллетень. – №2 (118). – Ташкент, 2011.
3. Ш.К. Усмонов. Аррали жиннинг ишчи камераси кўтариш-тушириш курилмасини такомиллаштириш ва параметрларини асослаш. техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Наманган, 2022 й. 130 б.
4. <http://docs.cntd.ru/document/gost-16516-80>
5. Герц Е.В. Динамика пневматических систем машин. – Москва: Машиностроение, 1985. - 256 с.

**УЎК:677.051.152.6**